



AFSONALARGA AYLANGAN ZA'FARON

Ho'sinova Gulasal

UrDU, Tabiiy fanlar fakulteti, Biologiya yo'nalishi, IV bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7546238>

ARTICLE INFO

Received: 08th January 2023

Accepted: 16th January 2023

Online: 18th January 2023

KEY WORDS

Gulsafsardoshlar, Smilaks, Ovid, qadimgi Rim, Germez, Kashmir, ilonlar xudosi, shifobaxsh o'simlik, onkologik kasalliklar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada za'faron o'simligi haqidagi turli qiziqarli afsonalar, za'farondan dori sifatida foydalana boshlanishning tarixi, turli mamlakatlarda za'faronni tinchlik, g'alaba, poklik va nikoh ramzi qilinishi haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

«Za'faron - burishtiruvchi va erituvchidir. Bunda burishtirish va yelimlar xususiyati bo'lganidan yetiltiruvchi hamdir. Issiqligi mo'tadil bo'lib, tiqilmalarni ochadi: Sasishni tuzatib, ichki a'zolarini kuchaytiradi. Za'faron ichish rangni chiroyli, ko'zni ravshan, yurakni quvvatli qiladi. Balg'am ko'chishini osonlashtiradi va nafas a'zolarini kuchli qiladi»

Abu Ali ibn Sino.¹

Za'faron o'simligi gulsafsardoshlar oilasiga mansub piyozboshli ko'p yillik o'simlik. 3500 yillik tarixga ega bu o'simlikning vatani O'rta yer dengizi, Eron deb tan olingan. Za'faron o'simligi eralar osha insonlarga turli onkologik va teri kasalliklari, ayollardagi o'ziga xos holatlarda, ichki qon ketishda va ko'z kasalliklarida yaqindan ko'mak berib kelgan. Za'faron o'simligini yetishtirish va turli hastaliklarga qarshi qo'llash bilan ilk bor eramizdan avvalgi yillarda Minoan qabilasi boshlab berganligi haqida qazilma dalillar mavjud

Za'faron o'simligi bugunga qadar ko'plab afsona va rivoyatlarga aylangan va o'zining ko'plab kasalliklarga da'vo bo'lishi, o'ziga xos ta'mi hamda betakror rangi bilan insonlarni lol qoldirishda davom etmoqda.



¹ Avitsenna.uz




Za'faron o'simligi haqida Yunonistonda juda ham mashhur afsona mavjud. Unga ko'ra yosh va bahodir Krokus go'zal va dilbar nimfa Smilaksga oshiq bo'ladi. Krokus Afina bo'ylab Smilaks ortidan qolmaydi. Smilaks esa o'zining turli sehrli qobiliyatlari bilan Krokusni e'tiborini tortishga harakat qiladi. Biroq vaqt o'tib Smilaksga Krokusning juda oddiyligi va hech qanday qobiliyatga ega emasligi yoqmay qoladi. Bu bir xillik uni juda toliqtiradi va Krokusni gulga aylantirib qo'yadi. *Crocus sativus* – za'faronga aylangan Krokus har mavsum qizil stigmalari bilan insonlarga o'z sevgisining muhtasham ta'mini va har qanday dardga da'vo bo'la olishini eslatib turadi. Bu afsona ko'plab xalqlarda va mamlakatlarda juda mashhur bo'lib, hatto Germaniyada za'faron taqdim qilish sevgi ramziga aylangan. Za'faron taqdim qilgan yigit qizga pokiza nikoh bilan nikohlanishni taklif qiladi va ularning oilasi za'faron kabi o'zgacha ta'm va tuyg'ularga boy bo'ladi, deb ishoniladi.

Za'faron o'simligi qadimgi Rimda qahramonlik, g'alaba razmi sifatida tilga olingan. Bunga sabab bo'lgan afsona esa quyidagicha:

Ma'budlarning qizi bo'lgan shoir Ovid Krokusga oshiq bo'ladi. Jasur va yosh Krokus ham Ovidga befarq emasdi va ular ma'budlarga bildirmasdan uchrasha boshlaydilar. Buni sezib qolgan ma'budlar g'azablanadilar va Ovidni uzoq tog'ga olib borib yashirib qo'yadilar. Sevgilisi Krokus tushiga kirib Ovid qayerda ekanligi haqida xabar beradi. Krokus Ovid uchun yo'lga chiqadi. Ma'budlar unga juda ko'p tuzoqlar qo'yadilar. Biroq sevgilisiga zarar yetishini istamagan Ovid uning tushiga kirib baridan boxabar qilib turadi. Krokus ajdarlar bilan kurashadi, botqoqliklardan, cho'llardan, tog'lardan oshadi va sevgilisi yashirilgan tog'ga yetib keladi. Visol oni yaqinlashganda g'azablangan ma'budlar Krokusga chaqmoq uradilar. Bundan qattiq qayg'uga tushgan Ovid o'z joniga qasd qiladi. Dilbandini o'lishini istamagan ma'bud Ovidni doim yashil daraxtga, Krokusni esa gulga aylantirib qo'yadi. Oxiriga qadar kurashgan Krokus qahramonligi va so'ngida g'alaba qilgan muhabbat ramzi sifatida qadimgi Rimda uzoq safarga yoki urushga otlangan jangchilarga za'faronli choy ichirilgan. Bu bilan jangchi va yengilmas Krokus shijoatidan ularga ham ulashishini hamda g'alaba bilan qaytishlarini umid qilganlar.

Xitoyga za'faron o'simligini kirib kelishiga bog'liq g'aroyib tahminlar mavjud. Ko'pchilik za'faron Xitoyga Buyuk Ipak yo'li orqali kirib kelgan deyishsa, boshqalar qadimgi Tibetliklar za'farondan foydalanishni bilishgan deb aytadilar. Xitoyda za'faron o'simligi boqiylik, boshlanish ramzi hisoblanadi. Za'faronning bunday ramzni olishiga ham ajoyib afsona mavjud bo'lib bu afsona asosan Yunoniston tarixida uchraydi.



Bu afsonaga ko'ra, xabarlar elitish ma'budasi bo'lgan Germez (ayrim manbalarda Hermes) kelishgan va jasur Krokus bilan uchrashib yuradi. Kunlarning birida Germezga juda mas'uliyatli topshiriq beriladi va bu yo'lda uni ko'plab dushmanlari qarshilik qiladi. Janglarning birida Germezni himoya qilish uchun Krokus o'zini fido qiladi. Sevgilisidan ayrilishni istamagan Germez uni binafsha rangli nozik gulga aylantiradi va topshirig'ini bajarish uchun yo'lida davom etadi. Topshiriqni bajarib bo'lgach Germez sevgilisi aylangan gulni bag'riga bosib qattiq qayg'uga botadi va o'ksib yig'laydi. Ularga rahmi kelgan ma'budlar yer yuzini yomonliklardan tozalaydilar. Shu sababdan Xitoyda za'faronni boqiylik, yaxshiliklarning boshlanishi deb ishonadilar.

Kashmir dunyoda za'faron yetishtirish bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Kashmir navi esa eng sifatli va oliy nav hisoblanib, bu navni Kashmirdan boshqa joyda uchratish va yetishtirish deyarli imkonsiz. Kashmir navining stigmalari va bo'yi uzun bo'ladi, va boshqa navlarga qaraganda o'tkirroq va betakror ta'mga ega bo'ladi. Kashmir za'faronining ham bir necha afsonalari mavjud. Ulardan biri quyidagicha:

Afsonaga ko'ra ilonlar xudosi juda qattiq betob bo'lib qoladi. Har joydan o'ziga da'vo izlab sarson bo'ladi. O'z izmidagi eng zaharli ilonlarning zaharidan malhamlar tayyorlatadi, biroq hech biri foyda bermaydi. Kunlarning birida unga Kashmirda yashovchi juda kuchli tabib haqida xabar beradilar. Ilonlar xudosi uning oldiga borib hastaligi haqida, chora izlab kelgani haqida bildiradi. Tabib haqiqatdan ham mohir bo'lib, uni davolay oladi. Bundan juda quvongan kishi unga ko'pgina ichki kasalliklarga da'vo bo'la oladigan shifobaxsh gul haqida sirni ochadi va unga bu gul piyozchalarini sovg'a qiladi. Shu tariqa Kashmirda noyob binafsha gul paydo bo'lgan deyiladi.

Yana bir afsonaga ko'ra darvesh, dunyokezar olim, so'fiy, avliyolar Xoja Masud Valiy va Shayx Sharifuddin Valiy uzoq safar chog'ida juda og'ir hastalanadilar. Ko'p joylardan da'vo izlaydilar. Kunlarning birida cho'lda ketayotganlarida juda ham chiroyli va nozik gulni ko'rib yoqtirib qoladilar. Uni qo'llariga olganlarida ipchalari yerga to'kiladi. Ularni isrof qilmaslik uchun qo'llariga oladilar. Hidlab ko'rsalar juda hushbo'y bo'ladi. Uni sekin chaynay boshlaydilar. Ta'mi o'ziga xos va o'tkir o'simlik ipchalariga juda qiziqib qoladilar va undan bir ozni o'zlari bilan oladilar. Biroz vaqt o'tib o'zlaridagi hastalik chekina boshlaganini his

qiladilar. Bundan quvongan so'fiylar guldan, ipchalaridan va piyozchalaridan olib Kashmirda keladilar.

Za'faron haqidagi yana bir ajoyib asfsonada aytilishiga ko'ra, oydin tunda tillodek tovlagan za'faron dalasida Kashmir qiroli Yusuf Shoh shoir Zohida Zooniy bilan uchrashadi va unga oshiq bo'ladi. Bu uchrashuvdan keyin za'faronga "Xabba Khatoon" nomi beriladi va ular turmush quradilar.

Xulosa qilib aytganda, za'faron – *crocus sativus* bugunga qadar ko'plab xalqlarning go'zal afsonalariga aylangan va qadrlanib kelinmoqda. Za'faron o'simligi haqida ko'plab rivoyatlar, uning foydalari haqida ko'plab batanik tavsiflar ko'p asrlar oldin ham yozib qoldirilgan va bugunga qadar saqlanib kelinmoqda. Za'faron o'simligi o'zining betakror ta'mi va shifobaxshligi bilan ko'plab xalqlarning qalbini zabt etgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bugungi kunda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qarori bilan O'zbekiston hududida ham za'faron yetishtirila boshlanishi esa xalqimizning azaldan bunday o'simliklarga bo'lgan yuksak qiziqishini oshirishi hamda turli onkologik va ichki kasalliklarning tabiiy ma'danlar yordamida davolanishiga saba bo'lishiga umid qilamiz.



References:

1. The History of Saffron: From Greek Mythology to Modern Times. By Miasa | October 10, 2014 | All, Discover.
2. The Amazing Story Of Kashmiri Saffron. PureMart 28th Jul 2015. <https://www.puremart.in/>
3. Saffron and Greek Mythos. Lori Glenn, HerbClip™ Managing Editor. Published by the American Botanical Council, <https://www.herbalgram.org/>
4. Dhar, Manoj K; Sharma, Munish; Bhat, Archana; Chrungoo, Nikhil K; Kaul, Sanjana (28 March 2017). "Functional genomics of apocarotenoids in saffron: insights from chemistry, molecular biology and therapeutic applications (Review)". Briefings in Functional Genomics.
5. Amanpour, Asghar; Sonmezdag, A. Salih; Kelebek, Hasim; Selli, Serkan (2015). "GC-MS-olfactometric characterization of the most aroma-active components in a representative aromatic extract from Iranian saffron (*Crocus sativus* L.)". Food Chemistry.